



UDK:372.8

Nargiza MIRYUSUPOVA,

Maktabgacha talim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini kayta tayirlash va ularning malakasini oshirish instituti dotsenti
E-mail: nargizamiryusupova87@mail.ru

DSc, professor T.Ismoilov tarqizi asosida

MAKTABGACHA TALIMNI BOSHQARISHDA STRATEGIK YONDASHUVLAR

Аннотация

Ushbu maqolada maktabgacha ta'limni boshqarishda strategik yondashuvlarning ahamiyati va ularni joriy etish usullari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida normativ-huquqiy baza, inson resurslarini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda ota-onalar bilan hamkorlikni strategik darajada tashkil qilish masalalariga e'tibor qaratiladi. O'tkazilgan intervyu va focus-group tahlillari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv modellarining samaradorligi ko'p jihatdan uzoq muddatli maqsadlar, monitoring mexanizmlari va faol manfaatdor tomonlar ishtirokiga bog'liq. Xalqaro tajriba va mahalliy sharoitni uyg'unlashtirish orqali bolalar rivojlanishi va tarbiyachilar malakasini yangi bosqichga ko'tarish, pirovardida jamiyatning ilmiy-ma'rifiy salohiyatini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, boshqaruv, strategik rejalashtirish, innovatsion pedagogika, ota-onalar bilan hamkorlik, malaka oshirish, monitoring, resurslar.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В УПРАВЛЕНИИ ДОШКОЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ

Аннотация

В данной статье рассматривается значимость стратегических подходов в управлении дошкольным образованием и методы их внедрения. В ходе исследования основное внимание уделяется нормативно-правовой базе, развитию человеческих ресурсов, применению инновационных педагогических технологий, а также стратегическому сотрудничеству с родителями. Интервью и фокус-группы показали, что эффективность управленческих моделей в дошкольных учреждениях во многом зависит от долгосрочных целей, механизмов мониторинга и активного участия заинтересованных сторон. Комбинация международного опыта и местного контекста позволяет вывести развитие детей и квалификацию воспитателей на новый уровень, что в конечном итоге укрепляет научно-просветительский потенциал общества.

Ключевые слова: Дошкольное образование, управление, стратегическое планирование, инновационная педагогика, сотрудничество с родителями, повышение квалификации, мониторинг, ресурсы.

STRATEGIC APPROACHES IN PRESCHOOL EDUCATION MANAGEMENT

Annotation

This article examines the significance of strategic approaches to managing preschool education and the methods of their implementation. The study focuses on the regulatory framework, human resource development, the application of innovative pedagogical technologies, and establishing strategic cooperation with parents. Interviews and focus group discussions revealed that the effectiveness of management models in preschool institutions largely depends on long-term goals, monitoring mechanisms, and active stakeholder participation. By integrating international experience with local context, it is possible to enhance children's development and educators' professional qualifications, ultimately strengthening the society's scientific and educational potential.

Key words: Preschool education, management, strategic planning, innovative pedagogy, parental cooperation, professional development, monitoring, resources.

Kirish. Maktabgacha ta'lim bolalarning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy poydevorini shakllantiradigan muhim bosqich hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, bolalarning ilk yillari ularning kelajakdagi o'qish jarayoni, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy salohiyati rivojlanishida ustuvor ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalari boshqaruvi shu bois nafaqat bolaning shaxsiy imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish, balki davlatning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ham muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'limni boshqarishda zamonaviy strategik yondashuvlarni qo'llash orqali bolalarning rivojlanishini optimallashtirish, tarbiyachilar malakasini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va umuman olganda jamiyatning ta'limiy-ijtimoiy ehtiyojlariga moslashish mumkin. Shu ma'noda, bolalarning pirovard natijadagi rivojlanish darajasi bevosita boshqaruvning samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq bu jarayon turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida kechadi. Xususan, demografik o'zgarishlar, o'quvchilar sonining ko'payishi, o'qituvchi va tarbiyachilar malakasini oshirish ehtiyojlari, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'ning yetarliligi hamda oilalar bilan hamkorlik strategiyalarining qanday yo'lga qo'yilishi – bularning barchasi samarali boshqaruv uchun puxta strategik rejalashtirishni talab etadi. Ana shu sharoitda maktabgacha ta'limni boshqarishda strategik yondashuvlar nimalardan iborat bo'lishi, ular qanday

qo'llanilishi va qanday natijalarga erishish mumkinligi ushbu maqolaning asosiy tadqiqot yo'nalishini tashkil etadi.

Metod. Ushbu ilmiy tadqiqotda maktabgacha ta'lim boshqaruviga oid strategik yondashuvlarni o'rganishda bir nechta metodologik manbalarga asoslanildi. Avvalo, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni ko'rib chiqish orqali metodik asos tayyorlandi. Bu jarayonda xalqaro tashkilotlar, xususan YUNESKO, UNICEF, O'ECD kabi institutsional tuzilmalarning maktabgacha ta'lim sohasidagi tavsiyalari, ilg'or tajribalari va siyosiy hujjatlari tahlil qilindi. Keyinchalik, mahalliy kontekstda maktabgacha ta'limni boshqarishda yuzaga keluvchi dolzarb masalalarni aniqlash va ularning echimlari bo'yicha ma'lumot olish maqsadida intervyu va focus-group usullaridan foydalanildi. Intervyular maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari, tarbiyachilar va ota-onalar bilan olib borildi. Focus-group esa turli darajadagi (rayon, shahar va respublika miqyosida) ta'lim mutasaddilari hamda ilmiy-pedagogik tadqiqotchilar ishtirokida tashkil etildi. Olingan ma'lumotlar kontent-tahlil va tematik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanib, eng muhim strategik yondashuvlar ajratib ko'rsatildi. Shuningdek, ta'lim tizimida jahon miqyosidagi tendensiyalarni solishtirish maqsadida qator davlatlarning maktabgacha ta'lim boshqaruviga oid qonunchilik va amaliy tajribalari ham o'rganildi. Natijada, xalqaro tajribaga xos bo'lgan strategik elementlar bilan mahalliy sharoit o'rtasidagi muvofiqlik

darajasi baholandi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan metodlarning uyg'unligi, ya'ni nazariy tahlil, empirik kuzatish, intervyu, focus-group va solishtirma tahlillar maktabgacha ta'lim boshqaruvida strategik yondashuvlar haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini berdi.

Natijalar. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'limni boshqarishda strategik rejalashtirish bir nechta asosiy yo'nalishda kuzatiladi. Avvalo, boshqaruv tizimining qat'iy normativ-huquqiy bazaga tayanishi yetakchi o'rin tutadi. YA'ni, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga oid asosiy qonunlar, nizomlar, standartlar va davlat dasturlari davlat yoki mahalliy hokimiyat darajasida belgilangan bo'lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etishda to'g'ri strategik qarorlar qabul qilish muassasa rahbarlarining salohiyati va tarbiyachilar jamoasi bilan hamkorligiga bog'liq. Ikkinchi yo'nalish sifatida, inson resurslarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tadqiqot chog'ida intervyu qilingan rahbarlar va tarbiyachilar kasbiy malakalarini doimiy oshirish ehtiyojini ta'kidlashdi. Bu borada o'quv kurslari, malaka oshirish dasturlari hamda tarbiyachilar o'rtasida tajriba almashish tadbirlariga bo'lgan talab yuqori ekanini kuzatildi. Shuningdek, modellar amaliyotda samarali natija berishi uchun boshqaruvdagi xodimlar o'zaro ko'nikma, motivatsiya va yetarli metodik ta'minotga ega bo'lishlari zarurligi aniqlandi. Uchinchi muhim yo'nalish – innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Maktabgacha ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv dars usullarini targ'ib qilish, bolalarda ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi loyihalarga e'tibor qaratish juda zarur ekanligi aniqlandi. To'rtinchi muhim jihat – oilalar bilan strategik hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish. Tadqiqot davomida ota-onalar bilan muloqot, o'quv-tarbiya jarayonini uy va bog'cha sharoitida izchil davom ettirish mexanizmlari haqiqatan ham maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega ekanini aniqlandi. Ota-onalar farzandlarining rivojlanish jarayonida bevosita ishtirok etishi, bolalarga tarbiyachi bergan ko'nikmalarni mustahkamlashda faol bo'lishi ta'limning barqaror samarasiga xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, resurslar bilan ta'minlash ham muhimligi, ya'ni moddiy-texnika bazasini yaxshilash, guruhlarda bola sonini meyorlash, oziq-ovqat va gigiyena mahsulotlarini sifatli taminlash bo'yicha ijtimoiy hamda hukumat dasturlari ishlab chiqilishi lozimligi aniqlandi.

Tahlil va muhokama. Maktabgacha ta'lim bosqichida strategik boshqaruv deganda, birinchi navbatda, uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, ularga erishishda zanjirbozlik mexanizmini yaratish, natijalarni monitoring qilish va natijalar asosida keyingi qarorlarni shakllantirish tushuniladi. Joriy tadqiqot shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim rahbarlari odatda o'z rejalari yoki yuqori idoralar tomonidan tasdiqlangan rejalar asosida ish ko'rishadi. Ammo bunday rasmiy hujjatlar hamisha ham "strategik" xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin, chunki ular amaliy natijalar, sifat o'lchovlari va ularni monitoring qilish mexanizmlari bilan to'laqonli bog'lanmagan bo'lishi ehtimoli bor. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalarida strategik rejalashtirish elementlarini samarali joriy etish uchun, avvalo, boshqaruv xodimlari mana shu tizimga oid to'liq tushunchaga ega bo'lishlari talab etiladi. Xuddi shu jarayonda xorij tajribasidan moslashuvchan foydalanish mumkin. Masalan, ayrim Yevropa davlatlarida "professional o'rganish hamjamiyatlari"ni shakllantirish orqali, maktabgacha ta'lim xodimlari o'rtasida malaka va tajriba almashinuvi mukammal yo'lga qo'yiladi. Bunday amaliyot bizdagi ta'lim muassasalarida ham joriy qilinsa, rahbar va tarbiyachilar orasida doimiy muloqot va o'zaro qo'llab-quvvatlash yuzaga kelishi, strategik maqsadlarga yo'naltirilgan birgalikdagi qarorlar qabuli yengillashishi mumkin. Shu bilan birga, oilalar bilan hamkorlikda strategik rejalashtirishning alohida afzalligi bor: ota-onalar bolalarning rivojlanishidagi

ustuvor maqsadlar bilan tanishtiriladi, ularning fikrlarini inobatga olish orqali ta'lim jarayonining moslashuvchanligi oshadi. Ota-onalarning ko'nikma va mulohazalari boshqaruv tizimini to'ldiradi, zaruriy resurslarni safarbar etishda qulay sharoit yaratadi. Ahamiyatli tomoni shundaki, maktabgacha ta'lim bosqichida oilalarning ishtiroki keyinchalik maktab bosqichida ham bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada ta'lim jarayoni butun bir ijtimoiy muhitni qamrab oladigan shaklga keladi, bu esa strategik boshqaruvning izchil rivojiga yo'l ochadi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlash va joriy qilishda strategik yondashuvning o'zini dolzarbdir. Tadqiqotda aniqlanishicha, zamonaviy texnologik platformalardan foydalanish, masalan, onlayn resurslar va virtual o'yinlardan maqsadli foydalanish bolalarning qobiliyatlarini tezroq rivojlantirishda samarali bo'lishi mumkin. Ammo shu bilan birga, har bir maktabgacha ta'lim muassasasi o'zining konkret sharoitlaridan, pedagogik jamoaning imkoniyatlaridan kelib chiqishi, texnologik vositalarning texnik ta'minotga bo'lgan talablari va xavfsizligi masalalarini hamda bolaning ruhiy holatiga ta'sirini inobatga olishi zarur. Demak, innovatsion texnologiyalar strategik reja doirasida puxta tahlil qilinishi, kutilayotgan natijalar oldindan baholanib, monitoring usullarining aniq belgilab olinishi kerak. Ta'kidlash joizki, mazkur strategik qarorlar qabul qilinishida manfaatdor tomonlar – ota-onalar, pedagoglar, jamiyat vakillari – hamkorlikda ishtirok etishi lozim. Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, strategik yondashuvlar boshqaruvning faol, moslashuvchan va innovatsion modelini yaratishga ko'mak beradi. Binobarin, boshqaruv samarasini oshirishda, tabiiyki, davlat siyosati darajasidagi hujjatlar muhim bo'lsa-da, joylardagi ijro mexanizmi, resurslarni to'g'ri taqsimlash, professional hamjamiyatlar o'rtasidagi hamkorlik, ota-onalar bilan turg'un muloqot va qadriyatlar uyg'unligi ta'lim jarayonida sifatli natijaga erishishni belgilab beradi. Bu esa maktabgacha ta'lim sohasidagi uzluksiz taraqqiyotning negizini tashkil etadi.

Xulosa. Maktabgacha ta'limni boshqarishda strategik yondashuvlar nafaqat bolalar rivojlanishi va tarbiyachilar malakasiga, balki butun jamiyatning ilmiy-ma'rifiy salohiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Ushbu tadqiqotda ko'rsatib o'tilganidek, samarali strategik boshqaruvni yo'lga qo'yish uchun bir nechta asosiy omillar uyg'un ishlashi zarur. Birinchidan, qonunchilik-meyoriy baza mavjud bo'lganda ham uni ishga solishdagi moslashuvchanlik va ijro intizomi hal qiluvchi o'rin tutadi. Ikkinchidan, tarbiyachilar va rahbar kadrlarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish, malaka oshirish tizimini mukammal yo'lga qo'yish lozim. Uchinchi omil sifatida oilalar bilan hamkorlikni strategik darajaga ko'tarish, ya'ni ota-onalarni faqat kuzatuvchi yoki ijrochi emas, balki hamkor sifatida jalb qilish, rejalashtirish va baholash jarayonida ularning ishtirokini ta'minlash alohida ahamiyatga ega. To'rtinchidan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni to'g'ri boshqarish muhim. Buning uchun texnik ko'nikmalar va metodik qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda bolalarning salomatligi, psixologiyasi, xavfsizligi ham doimiy nazoratda bo'lishi talab etiladi. Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, strategik boshqaruv modeli joriy etilgan maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi, bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi, natijada ta'lim sifati izchil ravishda yuqori pog'onaga ko'tariladi. Shu bois kelgusida maktabgacha ta'lim sohasida olib boriladigan tadqiqotlar, amaliy chora-tadbirlar va siyosiy dasturni ishlab chiqishlarda strategik yondashuv prinsiplari ustuvor o'rin tutishi zarurligi ta'kidlanadi. Zero, maktabgacha ta'limda tizimli va strategik qarorlar qabul qilish nafaqat jamiyatda ilm-fan va madaniyat rivojiga, balki davlatning barqaror taraqqiyotiga ham ijobiy hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш бўйича Низом / Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги. – Т.: МТВ, 2020. – 45 б.
2. Кузиев Р. Р. Мактабгача таълим: назарий ва амалий аспектлар / Р. Р. Кузиев. – Т.: Фан, 2018. – 225 б.

3. UNESCO.Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4. – Paris: UNESCO, 2016. – 68 p.
4. OECD.Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education and Care to Primary Education. – Paris: OECD Publishing, 2017. – 224 p.
5. Гуломова Д. Ҳ.Инновацион педагогик технологиялардан фойдаланишда стратегик ёндашувлар / Д. Ҳ. Гуломова // Педагогика инновациялари журнаи. – 2021. – № 2. – Б. 112–118.